



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "FARZAND/CHILD" KONSEPTI VA UNI VOQEALANTIRUVCHI VOSITALAR MAYDONI.

Ergasheva Azizaxon Xayrulla qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16900975>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Avgust 2025 yil

Ma'qullandi: 15- Avgust 2025 yil

Nashr qilindi: 19- Avgust 2025 yil

KEY WORDS

farzand, konsept, lingvistik vositalar, lingvomadaniy, lingvokognitiv jihatlar, maydon, yadro, periferiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada "farzand" konsepti tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan hamda uning turli darajadagi til birliklari: morfemalar, leksemalar, frazemalar, frazoemalar, sentensemalar va tekstemalar orqali ifodalanish xususiyatlari ochib berilgan. Farzand konsepti faqat semantik jihatdan emas, balki tizimli-lingvistik yondashuv asosida ham tahlil qilinib, konseptual maydon modeli asosida qatlamlarga ajratilgan..

"Konsept" atamasi 20-asrning 1990-yillarida, ayniqsa, gumanitar fanlar va tilshunoslikda keng qo'llanila boshlandi. Bu so'z lotincha *conceptus* so'zidan olingan bo'lib, "o'ylab topilgan narsa" yoki "fikr" degan ma'noni anglatadi. Gumanitar fanlar doirasida esa konsept odatda ma'no yoki tafakkurning asosiy birligi sifatida tushuniladi.

Zamonaviy tilshunoslikda ushbu atama birinchi bo'lib rus tilshunosi S. A. Askoldov tomonidan ishlatilgan. U konseptni "*ma'lum bir turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini aks ettiruvchi birlik*" deb izohlagan [1, 267–280]. Bu ta'rif konseptni til orqali ma'no qanday shakllanishi va anglanishini tushunishda markaziy kognitiv va semantik birlik sifatida ko'rsatadi.

Zamonaviy tilshunoslikda "konsept" atamasi leksik birlikning mental obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kundalik ilmiy faoliyatda esa bu atama ko'pincha "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Konsept tushunchasi deyarli barcha mashhur tilshunoslar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, har biri unga o'ziga xos individual talqinlar bergan.

Y.A. Stepanov va S.A. Askoldovning qarashlari bir-biriga juda yaqin: ular konseptni " mantiqiy kategoriya" sifatida talqin qiladilar. Askoldovning fikriga ko'ra, "konsept — bu inson tafakkurida shakllangan madaniyat elementlaridan biri bo'lib, aynan shu shaklda madaniyat insonning aqliy dunyosiga kiradi." [2,89]

Yana bir rus tilshunosi V. A. Maslova konsept mazmuniga ko'p qirrali tuzilma sifatida qaraydi. U konsept nafaqat so'zlovchilar tomonidan o'ylab ko'riladigan, balki ular tomonidan seziladigan hayajon, mulohaza, milliy obraz va konnotatsiyani ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi hamda konsept tuzilmasida alohida nuqtai nazar mavjudligini ko'rsatadi. Uning fikricha, konsept markazida qadriyat joylashgan bo'lib, u madaniyatni o'rganishga xizmat qiladi, shuningdek, qadriyat prinsipi madaniyatning asosini tashkil qiladi. Bundan tashqari,

har bir konsept o'zining murakkab aqliy uyg'unligi va semantik tuzilmasidan tashqari, insoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, tilga oid hamda shaxsiy-individual tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi [3, 208].

D.S. Lixachyov esa konsept ta'rifiga ma'no va anglash nuqtai nazaridan yondashadi va quyidagicha izohlaydi: "Konsept — bu insonni anglash, oz miqdordagi obyektiv ma'no va anglash shaklida mazmunlilikning namoyon bo'lishidir" [4, 281].

Tilshunos, Professor G.M. Hoshimov esa konseptga quyidagicha ta'rif beradi: "Konsept, bu – tafakkurda kechuvchi biri-biri bilan chambarchas bog'liq bo'liq nafaqat ikki muhim jarayon (konseptualizatsiya (konseptualashtirish) va kategorizatsiya (kategoriyalashtirish)ning natijasi bo'lib sanaladi, balki unga qo'shimcha yana bir qator muhim jarayonlarning pirovard natijasidir, va u yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda unda til birligi o'zining semantik sig'imi bilan bo'liq holda ma'lum darajada (qisman) aks etadi." [5, 45-46] Professor konseptni murakkab idrokiy voqelik, ya'ni tilda verbal (va kerak hollarda noverbal) vositalar orqali voqelantiruvchi hodisa sifatida murakkab ichki tashkil etuvchilardan iborat deb hisoblaydi. Olimning fikriga ko'ra, u o'ziga xos tashkil etuvchilarni o'z ichiga olgan shajaraviy tarkibga ega va tilda gapiruvchilar o'rtasida barcha so'zlovchilar tomonidan belgi(lar) orqali moddiylashtiriladi hamda barchaga umumiy bo'lgan bir ma'no sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, ma'no verbal belgi orqali voqelantiriladi, kalitlashtiriladi, kodlashtiriladi, parollashtiriladi, me'yorlashtiriladi.

G.M. Hoshimovning konseptga bergan izohi juda keng qamrovli va ilmiy-nazariy asosga ega. Tilshunos konseptni tafakkur jarayonining murakkab mahsuli sifatida talqin qilgani, uni faqat ikki asosiy jarayon (konseptualizatsiya va kategorizatsiya) bilan emas, balki butun idrokiy faoliyat bilan bog'lagani e'tiborga loyiqdir. Ayniqsa, konseptning lingvistik semantikadagi kognitiv asos sifatida talqin qilinishi, uning semantik sig'imi orqali tilda qisman aks etishini urg'ulashi muallifning kognitiv yondashuvga chuqur kirib borganini ko'rsatadi. Shuningdek, professor Hoshimovning konseptni murakkab ichki tuzilishga ega bo'lgan, shajaraviy tarkibga ega idrokiy voqelik sifatida tasvirlashi, uni verbal va noverbal vositalar orqali ifodalanadigan semantik birlik deb tushuntirishi zamonaviy kognitiv tilshunoslikdagi ilg'or yondashuvlardan biridir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, G.M.Hoshimovning konsept haqidagi qarashlari boshqa olimlarning (masalan, S.A. Askoldov, Y.S. Stepanov, V.A. Maslova va boshqalar) qarashlariga nisbatan yana-da mukammalroq, tizimliroq va lingvistik tafakkurni chuqurroq qamrab olgan deb hisoblash mumkin. G.M.Hoshimovning ushbu ta'rifi konsept mohiyatini integral, funksional va madaniy-kognitiv nuqtai nazardan tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Farzand/child konseptiga to'xtaladigan bo'lsak, u har qanday jamiyatda muhim o'rin tutadi, chunki u oila, tarbiya va ijtimoiy qadriyatlarining asosiy timsolidir. Bu konsept nafaqat biologik ma'noda balki ijtimoiy, psixologik va madaniy ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Til orqali ifodalandigan bu konsept turli xalqlarda o'ziga xos lingvistik va madaniy xususiyatlarga egadir.

Farzand - tojikcha (ot) "*ota-onaning bolasi*" ma'nosini anglatadi [6, 406]. Adabiy o'zbek tilida shu tovush tarkibi bilan aytiladi va shunday ma'noni anglatadi, [7, 295]. So'zlashuv tilida f tovushi p tovushiga almashtiriladi, ba'zan oxirgi d tovushi talaffuz qilinmaydi. O'zbek tilida *farzand* so'zining emotsional bo'yoqdorligi kuchli — ko'pincha hurmat, muhabbat va

ma'suliyat bilan aytiladi. Ingliz tilida *child* nisbatan neytralroq, lekin kontekst orqali ijobiy yoki neytral bo'lishi mumkin.

"Child" (bola, farzand) tushunchasi faqatgina biologik yoki rivojlanish bosqichini bildiruvchi atama emas; u jamiyat qadriyatlari, madaniy me'yorlar va psixologik jihatlarni aks ettiruvchi murakkab lingvistik konstruksiyadir. Ingliz tilida "child" so'zi oddiygina "yosh inson" degan ma'nodan tashqari, ko'plab ma'nolar va assotsiatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'p qirrali mohiyat tilning bolalikni qanday shakllantirishini va turli kontekstlarda yoshlik haqidagi qarashlarga qanday ta'sir qilishini o'rganishga undaydi.

Lingvistik nuqtai nazardan, "child" atamasi semantik jihatdan boy qatlamlarga ega. Bu so'z nafaqat yosh shaxsni bildiradi, balki begunohlik, qiziquvchanlik va salohiyat kabi tushunchalarni ham ifodalaydi. Bolalar haqida ishlatiladigan til ularning o'rganuvchi va kashfiyotchi sifatida tutgan o'rnini ta'kidlaydi, bu esa erta rivojlanishni belgilovchi izlanishga bo'lgan ichki ehtiyojni ko'rsatadi. Boshqa tomondan, bu atama bog'liqlik va himoyaga muhtojlik kabi ma'nolarni ham o'z ichiga oladi — bu esa jamiyatning yosh avlodni tarbiyalash va asrash borasidagi mas'uliyatini aks ettiradi.

Bundan tashqari, "child" tushunchasi "toddler" (emaklayotgan bola), "adolescent" (o'smir), "minor" (voyaga yetmagan) kabi turli sinonim va bog'liq atamalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har biri ma'lum rivojlanish bosqichlari va shu bosqichlarga xos xususiyatlarni anglatadi. Ushbu farqlar tilning tajribalarni qanday toifalashini va bolalik haqidagi qarashlarga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shuningdek, "kid" (bola) kabi so'zlar yoki "little one" (kichkintoy) kabi mehr ifodalaydigan atamalar bu tushunchaning hissiy ta'sirini yanada boyitadi va ko'pincha mehr, iliqlik va g'amxo'rlik tuyg'ularini uyg'otadi. Ingliz tilida "child" so'zi bir qator semantik ma'nolarga ega bo'lib, ularni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- *Biologik jihatiga ko'ra*: "child" so'zi birinchi navbatda ota-onadan tug'ilgan shaxsni anglatadi (masalan, "She has two children").

- *Yosh ma'nosi*: Bu so'z odatda balog'at yoshiga yetmagan shaxslarga nisbatan ishlatiladi (masalan, "Children under 12 get free admission").

- *Metaforik ma'no*: "Child" ko'pincha tasavvufiy yoki ijtimoiy kontekstda ishlatiladi, masalan, "child of God" (Xudoning farzandi) yoki "child of the revolution" (inqlob farzandi). Bundan tashqari, ingliz tilida "child" bilan bog'liq sinonimlar (*kid, offspring, youngster, juvenile, infant, toddler*) mavjud bo'lib, ular kontekstga qarab turli emotsional va stilistik jihatlarni ifodalaydi. Masalan, "kid" so'zi norasmiy kontekstda ishlatilsa, "offspring" rasmiy yoki ilmiy nutqda qo'llaniladi.

O'zbek tilida "farzand" so'zi ham xuddi "child" kabi ko'p qirrali ma'nolarga ega:

- *Biologik ma'no*: Ota-ona uchun tug'ilgan bola (masalan, "Uning uch farzandi bor").

- *Ijtimoiy ma'no*: Farzand oilaning davomchisi, kelajak avlodi sifatida qaraladi (masalan, "Farzand – oilaning ko'z nuri").

- *Metaforik ma'no*: "Farzand" so'zi ko'pincha o'quvchi, shogird yoki biror ishning davomchisi sifatida ishlatiladi (masalan, "Alisher Navoiy adabiyotning farzandi").

O'zbek tilida "farzand" so'ziga yaqin ma'noda "bola", "o'g'il", "qiz" kabi so'zlar ishlatiladi, lekin "farzand" so'zi rasmiy kontekstlarda ko'proq qo'llaniladi. Masalan, "bola" so'zi kundalik nutqda keng tarqalgan bo'lsa, "farzand" ko'proq hurmat va muhabbatni ifodalaydi [8, 112].

Shuningdek, "avlod, zurriyod, nasl, voris" kabi so'zlar o'zbek tilida bola so'ziga sinonim

bo'la oladi.

Farzand/child konsepti ingliz va o'zbek tillarida turli til vositalari orqali ifodalanadi. Bu ifodalar lingvistik, madaniy va psixologik xususiyatlarga bog'liq holda shakllangan. Quyida ingliz va o'zbek tillarida "farzand/child" konsepti qanday til vositalari bilan ifodalanishi mumkin. Ularga morfemalar, leksemalar, frazoemalar, frazemalar, sentensemalar (sodda va murakkab qo'shma gaplar) va tekstemalar kiradi.

O'zbek tilidagi "farzand" va ingliz tilidagi "child" konseptining morfemalar orqali ifodalanishi tilshunoslikda konseptual maydonni o'rganishda muhim bosqichlardan biridir. Quyida ushbu konseptning morfemik tahliliga asoslangan asosiy jihatlar beriladi: Ingliz tilida "child" uchun odatiy "-s" qo'shimchasi emas, balki "-ren" qo'llaniladi: child → children. Bu istisno tariqasida qabul qilinadi va morfologik nuqtayi nazardan noturg'un shakl hisoblanadi.

O'zbek tilida esa *ko'plik* -lar qo'shimchasi orqali sodda va muntazam hosil qilinadi: farzand → farzandlar

O'zbek tilidagi "-lar" agglutinatív, ya'ni har bir qo'shimcha bitta aniq grammatik ma'no beradi. Ingliz tilida esa bunday qat'iylik yo'q, bu esa o'zbek tilining tahliliy emas, sintetik-agglutinatív til ekanini ko'rsatadi.

Ingliz tilida egalik "s" orqali ifodalanadi: child's toy, child's smile — bu yerda egalik morfemasi grammatik jihatdan universal, ya'ni barcha shaxslarga bir xil qo'llaniladi va kontekst orqali farqlanadi.

O'zbek tilida *egalik qo'shimchalari* har bir shaxsga mos tarzda belgilanadi: bolam, bolang, bolasi, bolamiz, bolanglar, bolalari va h.k.

O'zbek tilida egalik ko'proq shaxsiy munosabat, yaqinlik va hissiylikni aniq ko'rsatadi, bu esa "farzand" konseptining oilaviy, shaxsiy, va mehrga asoslangan tabiatini ochib beradi.

So'z yasovchi affikslar orqali kengayish:

Ingliz tilida child so'zidan ko'plab hosilalar yaratiladi:

childhood – bolalik davri

childish – bolalarcha (odatda salbiy)

childlike – beg'uborlik, soddalik (ijobiy)

childless – farzandsizlik

childcare – bola parvarishi

O'zbek tilida farzand so'ziga juda ko'p affikslar qo'shilib, uning ma'nosini boyitadi:

farzandcha – farzandga o'xshagan, farzanddek (*-cha* kichraytirish yoki munosabat bildiruvchi qo'shimcha)

farzandli – farzandi bor (*-li* ega bo'lishni bildiruvchi qo'shimcha)

farzandsiz – farzandi yo'q (*-siz* inkor qo'shimchasi)

farzandlik – farzand bo'lish holati yoki farzandlik maqomi (*-lik* holat, sifat bildiruvchi qo'shimcha)

farzandchalik – farzand darajasida, farzandchalik darajada (*-cha + -lik* (daraja yoki miqdorni bildiradi))

Demak, har ikkala til ham derivatsion morfemalar yordamida "farzand" konseptining davriy, xatti-harakatli, emotsional va ijtimoiy jihatlarini kengaytiradi. Biroq o'zbek tilida affikslar ko'proq mehr va erkalovchi ohangda, ingliz tilida esa mazmuniy aniqlik va ijtimoiy rolga urg'u beriladi.

O'zbek tili — agglutinatív til, ya'ni, har bir morfema o'zining aniq vazifasiga ega va so'zga tartibli tarzda qo'shiladi: farzand + im + dan (farzandimdan) — bu yerda 3 morfema har biri o'z rolini aniq bajaradi. Ingliz tili esa analitik til bo'lib, ko'pincha grammatik ma'no yordamchi so'zlar va kontekst orqali ifodalanadi. Child's — bu "child + possessive marker", lekin shaxs va ko'plik kontekst bilan aniqlanadi.

O'zbek tilidagi "farzand" va ingliz tilidagi "child" so'zlari har ikkalasi ham asosiy leksik birlik bo'lib, o'zaro mos tushunchani bildiradi va konseptual yadro vazifasini bajaradi. Ikkalasi ham til egasining dunyoqarashida insonning nasl qoldirish, avlod davomchiligi, mehr-muhabbat kabi muhim tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan bazaviy (asosiy) semantik birliklardan biridir.

O'zbek tilidagi "farzand" mustaqil so'z sifatida qo'llanilib, semantik jihatdan ota-ona bilan bog'liq iliqlik, mehr, mas'uliyat, sadoqat, hurmat kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Fonetik jihatdan yumshoq va ohangdor tovushlardan tashkil topgan bo'lib, ko'pincha iliqlik, mehribonlik va yaqinlik ifodasi bilan uyg'unlashadi. Bu so'z o'zbek xalqining oilaviy qadriyatlari, milliy mentaliteti va axloqiy dunyoqarashida chuqur ildiz otgan.

Bunga qarama-qarshi, ingliz tilidagi "child" so'zi ham mustaqil birlik bo'lib, u ham nasl, avlod va yosh avlod tushunchasini bildiradi. Biroq fonetik jihatdan bu so'z tovush jihatdan kuchliroq, keskinroq eshitiladi. Ayniqsa, undoshlar birikmasi ("ch" va "ld") bu so'zga kuch, faoliyat, hayotiylik kabi semantik yorqinlik baxsh etadi. Shuningdek, bu so'z ingliz tilidagi turli kontekstlarda yosh, erkinlik, harakatchanlik yoki mustaqillik kabi tushunchalar bilan bog'lanadi.

Demak, "farzand" so'zi o'zbek tilida ko'proq ota-onaning mehrini, ijtimoiy mas'uliyatni va madaniy qadriyatlarni ifodalaydigan, fonetik va semantik jihatdan mehr-muhabbat va yumshoqlik bilan uyg'unlashgan bo'lsa, "child" so'zi ingliz tilida biologik yosh va individual xususiyatlarga ko'proq urg'u beradi. Shu bois, har ikkala so'z o'xshash konseptual maydonni qamrab olgan bo'lsa-da, ular ifodalaydigan mazmun, ohang va madaniy yuklama jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Infant – go'dak (0–1 yosh)

Baby – chaqaloq

Toddler – endi yurishni o'rgangan bola

Kid – norasmiy uslubda bola

Youth – o'smir, yoshlik davri

Minor – huquqiy jihatdan voyaga yetmagan

O'zbek tilida esa quyidagi leksik birliklar bilan ifodalanishi mumkin:

Farzand

Go'dak

Chaqaloq

Kichkintoy

Norasida (yetim, ota-onasiz bola)

Ko'ngilchan, beg'ubor (ko'chma ma'no bilan)

"Farzand/child" konsepti ikki tilda quyidagi frazemalar (ya'ni frazeologik birikmalar) orqali ifodalanadi.

Ingliz tilida "child" ko'proq psixologik holat, rivojlanish yoki noyetuklik nuqtai nazaridan ko'rsatiladi.

Minor child – voyaga yetmagan bola
Child protection – bolani himoya qilish
Foster child – asrab olingan bola
Abandoned child – tashlab ketilgan bola
Child custody – bola ustidan vasiylik
Child rights – bolaning huquqlari
O'zbek tilida "farzand" konsepti frazemalar orqali:

Farzanddek aziz

Farzandli bo'lmoq

Farzand dog'i

Frazeomalar orqali ifodalanishi:

Ingliz tilida:

Big baby – (kinoya) erkalik qilayotgan katta odam

Like a kid in a candy store – quvonchdan to'lgan holat

Child's play – juda oson ish

As innocent as a child – begunoh, toza qalbli

Child of nature – tabiat bilan uyg'un, beg'ubor odam

God's child – diniy ma'noda, Alloh tomonidan asralgan inson

Don't be such a child! – bolalarcha xatti-harakat qilma!

Throw a tantrum like a child – boladek injiqlik qilish

War child – urushdan aziyat chekkan bola

Street child – ko'chada yashovchi yetim bola

O'zbek tilida:

Ko'zimning qorasi- juda aziz bola, farzand

Dilimning sho'xi – yuragimning quvonchi, erka bola

Jonimning bir bo'lagi – farzand - ota-onaning jonidan ajralgan qismi

Yuragimning parchasi – juda yaqin, jonajon farzand; yurakning bir bo'lagi

Ingliz tilida "child" konseptining gaplar orqali ifodalanishi:

Every child has the right to safety and education.

A child raised with love will spread love.

Childhood shapes character.

Qo'shma gaplar bilan:

Children are like wet cement – whatever falls on them makes an impression.

(Bolalar ho'l sementga o'xshaydi – nima tushsa, iz qoldiradi.)

Every child is an artist, the problem is how to remain an artist once we grow up. (Har bir bola ijodkordir. Muammo – ulg'aygach ham o'sha qobiliyatni saqlab qola olishda.)

Children must be taught how to think, not what to think.

(Bolaga nima o'ylashni emas, qanday o'ylashni o'rgatish kerak.)

A child is not a vessel to be filled, but a fire to be kindled.

(Bola bu to'ldiriladigan idish emas, balki yoqiladigan olovdir.)

Farzand/child konsepti o'zbek tilida sodda yoki qo'shma gaplar bilan ifodalanishi mumkin:

Sodda gaplar (farzand konsepti asosida):

Farzand – uyga nur.

Farzandli uyda baraka bo'ladi.
Farzand ota-onaning ko'zgusi.
Har bir farzand – Xudoning in'omidir.
Farzand – qalb quvonchi.
Yaxshi farzand – ota-onaga jannat kaliti.
Farzandga yoshligidan non bilan odob ber.
Farzand – ertangi kunning egasi.
Qo'shma gaplar orqali ifodalanishi:
Farzanding yaxshi bo'lsa, yuzing yorug' bo'ladi.
Farzand tarbiyalansa, jamiyat yuksaladi.
Ota farzandga mehr bersa, farzand ota yuzini yoritadi.
Farzand ko'rsang, unga ibratli hayot ko'rsat.
Farzandli bo'lgan ota-ona, sabr va matonat egasi bo'lishi kerak.
Farzandni asrab-avaylasang, u seni ulug'laydi.
Farzand ota-onada nima ko'rsa, shuni qiladi.

Bu kabi gaplar o'zbek xalqining farzandga bo'lgan munosabati, tarbiya jarayonidagi tajribasi va hayotiy falsafasini ifoda etadi. Ular nafaqat til unsuri, balki madaniyat va dunyoqarash aksidir. Bunday gaplar maqol, hikmat, pand-nasihath shaklida ko'p ishlatiladi va lingvokulturologik jihatdan katta ahamiyatga ega.

Ingliz va o'zbek tillarida "child/bola" konsepti **tekstemalar**, ya'ni paremiologik birliklar(maqol va hikmatli so'zlarda) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Ingliz tilida quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

"Train up a child in the way he should go, and when he is old, he will not depart from it." (Bibliyadan olingan maqol) Ma'nosi: bolani qanday tarbiyalash kerak bo'lsa, yoshligidanoq shunday yo'l tut, keyinchalik ham shu yo'ldan chetga chiqmaydi.

"What is learned in the cradle is carried to the grave." Ma'nosi: Beshikda o'rgatilgan narsa qabrgacha boradi.

"Spare the rod and spoil the child." Ma'nosi: Tayog'ni ayasang, bolani buzasan. (Tarbiya qattqlikni ham talab qiladi degan ma'no)

O'zbek maqollarida esa farzand ko'pincha oilaning davomi, jamiyatning kelajagi va ota-ona hayotidagi eng muhim mas'uliyat sifatida tasvirlanadi.

Masalan:

"Farzand – uy nuri, mol – uy duri." Bu maqolda farzand oiladagi eng muhim boylik sifatida tasvirlanadi. Mol-dunyo vaqtinchalik bo'lsa, farzand doimiy quvonch va ma'no manbai hisoblanadi.

"O'g'il o'stir, o'n o'stir – o'ng o'stir." Bu maqol o'g'il farzandni to'g'ri tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Tarbiya sifati farzandning kelajagiga ta'sir qiladi.


"Ekin eksang – yer beradi, farzand o'stirsang – el beradi." Bu maqol farzand tarbiyasining nafaqat oila, balki butun jamiyat uchun muhim ekanini ko'rsatadi.

"O'g'il – ota beli, qiz – ona dili." Bu maqolda o'g'il farzand oilaning mustahkam tayanchi, qiz esa ota-onaning mehr-muhabbat manbai sifatida ko'riladi.

"Farzand – bog'dagi gul, tarbiya – uni sug'oruvchi suv." Bu maqolda farzand go'zal, ammo ehtiyotkorlik bilan parvarish qilinishi kerak bo'lgan narsa sifatida tasvirlanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda "child/farzand" konseptini turli til birliklari

bilan ifodalanishiga ko'ra quyidagicha tahlil qilish mumkin:



Umuman olganda, “farzand/child” konseptining ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi o'ziga xos bo'lib ularni izomorfik va allomorfik jihatlarini yuzaga kelishining asosiy tillardagi lingvokulturologik va lingvokognitiv jihatlarining o'zgachaligida. Ingliz tilida bu konsept ko'proq individualizm va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida kollektivizm va oilaviy qadriyatlar ustunlik qiladi. Frazeologizmlar, metaforalar, xalq og'zaki ijodi va adabiyotda bu konsept turli vositalar orqali voqelantiriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М:Academia. 1997. – С. 267-280
2. Аскольдов С.А. (1928). Понятие концепта и слово. // Проблемы поэтики. – Москва: Наука – С. 180-186.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: “академия”, 2001. – 208 с.
4. Лихачёв Д.С. Концепт в лингвистике и культурологии // Концепт: понятие и интерпретация. — М.: Языки русской культуры, 1997. – 281с.
5. Hoshimov G'M. Kognitiv tilshunoslik: nazariy asoslari va amaliy talqini. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – B. 45-46.
6. Тоҷикӣ – Русӣ – Тоҷикӣ синоними байни. – Душанбе: Дониш, 1985. – С. 406.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 295.
8. To'xtaboyeva M. O'zbek tilida sinonimik birliklarning uslubiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 112